

BALLADA JANRIDA SIMVOLIZM

Bolliyeva Madina Shodmonovna,

ADU tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada simvolizm haqida fikr yuritiladi. Simvolizm haqida o'zbek va rus adabiyoti olimlarining nazariy fikrlari o'rganilib, Usmon Azim balladalarini misolida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: ballada, ramz, simvolizm, epir, lirik xususiyatlar, qahramon ovozi, muallif pozitsiyasi, hissiy kechinma.

Аннотация. В данной статье рассматривается символизм. Теоретические взгляды узбекских и российских литературоведов на символизм изучаются и анализируются на примере баллад Османа Азима.

Ключевые слова: баллада, символ, символизм, эпос, лирические особенности, голос героя, позиция автора, эмоциональное переживание.

Annotation. This article discusses symbolism. The theoretical views of Uzbek and Russian literary scholars on symbolism are studied and analyzed using the ballads of Osman Azim as an example.

Keywords: ballad, symbol, symbolism, epic, lyrical features, hero's voice, author's position, emotional experience.

Kirish. Ballada janri adabiyotshunoslikda epik va lirik xususiyatlarni o'zida mujassam etgan sintetik janr sifatida qaraladi. Unda voqea, his-tuyg'u va falsafiy mazmun o'zaro uyg'un holda namoyon bo'ladi. Shu jihatdan ballada poetikasida ramz va simvollar muhim badiiy vosita vazifasini bajaradi. "Adabiyotshunoslikda Ramz voqelikni bevosita emas, balki ko'chma ma'no orqali ifodalash imkonini beradi" [1]. Ballada janri ramziy poetikasi bilan ajralib turadi. Ramz orqali lirik kechinma umumlashgan ma'no kasb etadi. G'arb balladalarida qon, qilich, soya, nur kabi ramzlar taqdir va fojea bilan bog'liq ma'nolarni ifodalaydi. O'zbek balladalarida esa yo'l, chiroq, soya, armon kabi ramzlar ichki ruhiy iztiroblarni ifodalaydi.

Adabiyotlar tahlili. "Adabiyot nazariyasida ramz tushunchasi obrazning yuqori bosqichi sifatida talqin qilinadi. U muayyan predmet yoki hodisani anglatish bilan cheklanmay, keng ma'no maydonini qamrab oladi. Balladalarda tabiat manzaralari, tun, yo'l, daryo yoki qush obrazlari ko'pincha inson taqdiri va ichki dramatismni anglatuvchi simvollarga aylanadi" [4]. Ramziylik nafaqat ballada janrida balki lirikaning boshqa janrlarida ham keng qo'llaniladi. Shoirlar va yozuvchilar qahramon ruhiy holatini mukammalroq tasvirlash uchun turli ramzlardan foydalanishadi. Bu ramzlarni ular o'z asarlarida jonlantirishadi. Ramzlar hissiy kechinmalarni tasvirlashda muhim bir vositalardan biri sanaladi. "Simvolizm nazariyasiga ko'ra, badiiy asarda simvol tashqi voqelik bilan ichki ruhiy holat o'rtasida ko'prik vazifasini bajaradi. Ayniqsa Yevropa balladalarida o'lim, muhabbat yoki taqdir motivlari muayyan ramzlar orqali ifodalangan. Bu holat ballada janrining folklor ildizlari bilan bog'liqdir" [2].

Har bir millatning o'z tarixi va ma'daniyati bo'lgani kabi har bir adabiyotning ham o'z folklori mavjuddir. Og'zaki adabiyot juda qadimiy ildizlarga egadir. Ulardagi turli mavzular va ramzlarni yozma adabiyotda ham ko'rishimiz mumkin. Ballada janrining

ham eng qadimgi ko‘rinishlari folklardan boshlanadi. Janrning mavzu, g‘oyasi va ramziy tasvirlari folklardan andoza olgan. “Folklorshunoslik tadqiqotlarida balladadagi ramzlar kollektiv xotira mahsuloti sifatida izohlanadi. Masalan, o‘rmon yoki tog‘ kabi makon obrazlari xavf, sinov yoki ruhiy o‘zgarish ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday simvollar asar kompozitsiyasini birlashtiruvchi markaziy unsurga aylanadi [3]”. Balladada ramziylik ko‘pincha qahramon ovozi va muallif pozitsiyasi o‘rtasidagi munosabatni ochib berishga xizmat qiladi. Muallif bevosita bayondan ko‘ra ishora va ramzlar orqali g‘oyani yetkazishni afzal ko‘radi. Shu sababli ballada o‘quvchidan faol talqin talab etadi. Zamonaviy adabiyotshunoslikda simvol semiotik tizim sifatida ham o‘rganiladi. Yu.Lotman ta’kidlaganidek, badiiy matnda har bir belgi ma’lum madaniy kodga bog‘langan bo‘ladi. Balladalaridagi ramzlar ham muayyan madaniy kontekstdan ajralgan holda anglanmaydi.

Muhokama va natija. Balladada tabiat obrazlarining ramziy vazifasi alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, shamol o‘zgarish yoki taqdir hukmini anglatrsa, suv obrazi vaqt va hayot oqimining simboliga aylanadi. Bu kabi ramzlar syujet dinamikasini kuchaytiradi. Qadimgi shotland va ingliz balladalarida oq ot, oy yorug‘i yoki qorong‘u tun kabi detallar qahramonning psixologik holatini ifodalash vositasi sifatida qo‘llanadi. Ular voqeani dramatiklashtirish bilan birga, falsafiy mazmuni chuqurlashtiradi. Shoir U.Azimning eng go‘zal va ta’sirli balladalaridan biri bu “Dasht haqida ballada”sidir. Insonning ruhiy kechinmalarini va iztiroblarini mukammal darajada tasvirlangan. Balladada shoir, balki o‘z bosib o‘tgan umri, balki kimlarningir sog‘inchga to‘lgan hayotidan hikoya qiladi. Ballada o‘z tug‘ilib o‘sgan yurtidan Boysundan shaharga ko‘chib kelgan qahramonning hayotidan hikoya qiladi. Syujetda har bir kichik elementlar tasvirlangan. Ijara uylar, vagonlar, shahar ko‘chalar, bepoyon osmonlar, kengliklar va muhabbat kechinmalari badiiy tasvir vositalari yordamida aks ettirilgan. Ushbu balladada zamon va makonning o‘zaro mutanosibligi qahramon ruhiyatining ziddiyatlari va kechinmalari yordamida tasvirlangan.

“Tog‘lar kichiraydi. Pasaydi osmon.
Yashab bo‘lmaydi-ku, axir engashib...
Jo‘nadim balandroq osmonlar tomon –
Ortimdan Boysunning dashti ergashdi...
Meni ishonmadi ufqlarga u,
Dosh berib tezlikning shamollariga
Ortimdan yugurdi, yugurdi yohu, ‘
Qoqilib temir yo‘l shpallariga.
Vagonga chiqazib qay bir bekatda.
Koyidim: – Bu ishdan zarra yo‘q ma’ni!..
U ruhsiz cho‘zildi tepa qavatga,
Biletsiz va pulsiz yo‘lovchi kabi.

Ushbu dastlabki kupletlarda balladaning g‘oyaviy o‘zagi shakllanadi. Lirik qahramonning harakati – “balandroq osmonlar tomon” yo‘l olishi tashqi voqeadek tuyulsa-da, aslida ichki ruhiy qochishni anglatadi. Dashtning “ergashishi” esa inson o‘z ildizidan, xotirasidan uzila olmasligining ramziy ifodasidir. Lirik kechinma tabiat obrazi orqali ochiladi. Bu parchada dasht to‘liq ramziy obrazga aylanadi. U ishonadi, yuguradi, qoqiladi. Temir yo‘l shpallari – shahar sivilizatsiyasining ramzi bo‘lib, dashtning ularga qoqilishi ruhiy insonning ruhiy tushkunligini anglatadi. Lirik qahramonning ichki ziddiyati shu yerda kuchayadi. Bu kupletlarda lirik qahramon o‘z ildizini majburan yangi muhitga olib kirishga urinadi. “Biletsiz va pulsiz yo‘lovchi” tashbehi dashtning shahar hayotiga mutlaqo yot ekanini ko‘rsatadi. Lirik kechinma pushaymon va ichki tanglikka aylanadi.

So‘ng shahar ko‘chasi, xiyobonlari

Aro kezdim – joylab dilimga uni –

Odamu mashina olomonlari

Toptab ketishmasin kup-kunduz kuni.

Davru davron surdim har hafta ko‘chib,

Ijara uylarning shavhi yodimda!

Qattihho‘l xo‘jayin ko‘zidan cho‘chib,

U beun yashadi mening yonimda...

Bahorda ko‘karib, kuzda sargayib,

Sukunytu qorga o‘ranib hishda,

G‘o‘ra she‘rlaringa bohdi mung‘ayib...

Xullas, sodiq bo‘ldi har ezgu ishda!

Bu yerda shahar muhiti sun‘iy, shafqatsiz makon sifatida berilgan. Lirik qahramon dashtni “diliga joylash” orqali uni asrashga urinadi. Bu ruhiy himoya harakati lirik kechinmaning navbatdagi bosqichini tashkil qiladi. Ballada voqeasi davomida bir insonning bir umrlik yashash tarzi tasvirlanadi. Bu esa syujetda zamon va makonning mutanosibligidan dalolat beradi. Qahramonning ichki kechinmalarini yoritib berishda peyzaj tasvirlaridan keng foydalanilgan. Balladaning asosiy g‘oyalaridan bir sog‘inchi. Inson o‘z yurtini qayrda bo‘lsa ham sog‘inaveradi. Dasht timsolida shoirning sog‘inchlari yashringan.

...Ammo, nima qilib qo‘ydi bu yillar!

Garchi men, munaqqid aytganday, “o‘sdim” –

O‘rtamizga kirdi qay ayyor jinlar,

Ko‘p xona uyimga sig‘maydi do‘stim.

Yalinaman unga:

– Bor, Boysunga bor!

Shaharga yarashmas sahroyi so‘xtang.

Borsang – shamol tayyor, yomg‘ir ham tayyor,

Toglar orasida yashaysan ko‘rkam.

Pandu nasihatlar berib tolaman,

Aldayman:

– Yur, ketdik ifor terгани...

Balladaning yuqoridagi misralarida lirik kechinma va shoir istiroblari yuksak dramatik cho‘qqiga chiqadi. Qahramonning ruhida o‘z-o‘zi bilan kurash boshlanadi. Uning qalbini afsus, nadomat kabi tuyg‘ular egallab oladi. Tabiat tasvirlari ham inson ko‘nglining kengliklarini chizib beradi. Peyzaj orqali qahramonning ichki kechinmalari va qarama-qarshi tuyg‘ulari ifodalanadi. Ballada syujetidagi dialoglar orqali ham qahramon ruhidagi konfliktlarni kuzatishimiz mumkin. Bu misralarda dasht obrazi bu qahramonning o‘zidir. U dialoglarda o‘z-o‘zi bilan suhbatlashadi. Shahar hayoti qanchalik serjilo bo‘lmasin, insonni o‘z ildizidan ajrata olmasligi tasvirlangan. “Ammo nima qilib qo‘ydi bu yillar” misralari balladadagi zamon tushunchasini ilgari suradi. Qahramon o‘zga makonda bo‘p yilllar davomida istiqomat qilganini anglatadi. Bu esa bir lahzalik voqeani emas balki bir umrlik voqeani davom etayotganidan dalolat beradi. Ballada o‘z ichiga vaqt, umr kabi motivlarni ham oladi.

Qaytaman. Ammo dasht sezib ulgurar...

Dosh berib tezlikning shamollariga,

Ortimdan halloslab, shoshib yugurar,

Qohilib temir yo‘l shpallariga.

Uyimga gezarib kirib kelaman,

Meni asra endi, inglizcha qulf!

Shundoq ostonada dasht qolar garang,

Eshikka termulib ” uf” tortadi... Uf!

Ballada fojiviy yakun bilan tugaydi. Dashtning vokzal maydonida yolg‘iz qolishi insonning o‘z ildizidan ajralishi oqibatidagi ma’naviy yetimlikni ifodalaydi. Lirik kechinma shu nuqtada umuminsoniy falsafiy mazmun kasb etadi. “Dasht haqida ballada” asarida lirik kechinma harakat, ramz va antropomorf obrazlar orqali ifoda etilgan. Asar kompozitsiyasi ketish – ziddiyat – fojiviy yakun prinsipiga asoslangan. Ballada janriga xos ravishda lirik va dramatik unsurlar uyg‘unlashgan. Garchi balladada insonning bir umri tasvirlangan bo‘lsada, syujet shiddatli dramatism va kuchli lirik istirob bilan davom etadi va janrga xos ravishda bir necha daqiqada fojea bilan yakunlanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, balladada ramz va simvollar syujetni harakatga keltiruvchi, kompozitsiyani birlashtiruvchi va g‘oyaviy mazmuni chuqurlashtiruvchi asosiy poetik mexanizm hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Аристотел. Поэтика. – Тошкент: Фан, 1980.
2. Лотман Ю.М. Художественный текст структураси. – Москва, 1972.
3. Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – Москва, 1989.
4. Жирмунский В.М. Теория литературы. – Санкт-Петербург, 1996.
5. Пропп В.Я. Фолклор ва сюжет морфологияси. – Москва, 1969.